



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 10 | pp. 109-114 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



**Mahamatova Maftuna Shukrullo qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [maxamatova1998@gmail.com](mailto:maxamatova1998@gmail.com)

ORCID 0009-0001-9518-3510

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro va mamlakat miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari tadqiq etilgan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida "Barqaror rivojlanish maqsadlari" dan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda Birlashgan millatlar tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) va "Countrymeters.info" internet nashrining rasmiy ma'lumotlari asosida tahliliy yoritib berilgan. Shu bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi muammolar va uning ilmiy yechimlari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Birlashgan millatlar tashkiloti, barqaror rivojlanish maqsadlari, iste'molchilar, oziq-ovqat mahsulotlari, xavf, xavfsizlik, iqlimiy migratsiya, urbanizatsiya darajalari.

**Аннотация.** В статье рассматриваются актуальные вопросы обеспечения продовольственной безопасности на международном и национальном уровнях. Обсуждаются меры, необходимые для обеспечения продовольственной безопасности на основе «Целей устойчивого развития». Также представлен аналитический обзор продовольственной безопасности на основе официальных данных Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединенных Наций (ФАО) и интернет-издания «Countrymeters.info». Также представлены проблемы обеспечения продовольственной безопасности и их научные решения.

**Ключевые слова:** Организация Объединенных Наций, цели устойчивого развития, потребители, продукты питания, риск, безопасность, климатическая миграция, уровни урбанизации.

**Abstract.** This article examines the current issues of ensuring food security at the international and national levels. It discusses the measures that need to be taken to ensure food security based on the "Sustainable Development Goals". It also provides an analytical overview of food security based on official data from the Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO) and the online publication "Countrymeters.info". At the same time, the problems of ensuring food security and their scientific solutions are presented.

**Keywords:** United Nations, sustainable development goals, consumers, food products, risk, security, climate migration, urbanization levels.

## **Kirish**

Hozirda dunyoda global miqyosda avj olayotgan iqlim o'zgarishlari bevosita oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, global darajada ochlikni tugatish choralari ko'rish, oziq-ovqat xavfini kamaytirish, iqlim o'zgarishlari ta'sirini yumshatish, oziq-ovqat balansini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bog'liq muammolarga yechim topish dunyo hamjamiyati oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu borada, XXI asrning asriy hujjati sifatida e'tirof etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va unga a'zo davlatlar bilan o'zaro kelishilgan holda "Barqaror rivojlanish maqsadlari" rezolyusiyasining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. BMT tomonidan qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" 17 ta Barqaror taraqqiyot maqsadlari va 169 ta umumiy maqsadlar (SDG) dan tashkil topgan. Xususan, "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida qabul qilingan rezolyusiyasining "Ochlikka barham berish" bo'yicha 2-maqsadida belgilangan bo'lib, ushbu maqsadga ko'ra, 2030-yilgacha ochlikdan xoli dunyo yaratish yo'lida izchil harakatlarga bog'liq. Global ochlik va oziq-ovqat xavfsizligi muammosi 2015-yildan beri tashvishli darajada ortib borayotganini ko'rsatmoqda, bu holat turli xavfli virusli kasalliklar (pandemiya) tarqalishi, siyosiy mojarolar, iqlim o'zgarishi va tengsizlikni ortishi kabi holatlar dunyo aholisini birdek tashvishga solmoqda [4].

## **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Oziq-ovqat xavfsizligi borasida jahon va milliy miqyosda ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan hamda o'ziga xos darajada oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi sharhlangan. Xususan, Jahon banki tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "har bir insonning oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish uchun yetarli daromadga ega bo'lishi lozim, bu esa oziq-ovqat xavfsizligiga erishishda qashshoqlikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega" [5].

X.P.Abulqosimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasini quyidagicha sharhlagan, ya'ni, "oziq-ovqat xavfsizligi – aholining yetarli, sifatli va hamyonbop oziq-ovqat bilan ta'minlanishi, shu bilan birga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta'minlashni anglatadi" [3].

Iqtisodchi olim B.Berkinov tomonidan ham quyidagicha ta'rif berilgan, "oziq-ovqat xavfsizligini nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarining yetarliligi, balki mahsulotlarning sifati va aholi iste'mol madaniyati bilan ham bog'liq" [2].

## **Tadqiqot metodlari**

Mazkur tadqiqot ishida taqqoslama tahlil, mantiqiy fikrlash, vaziyatni statistik bahola kabi usullardan foydalanilgan. Mamlakatimizda va dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan xalqaro darajadagi tadqiqotlar o'rganilgan va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonlari tahlil qilingan.

## **Tahlil va natijalar**


Dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan dolzarb muammolardan biri bu oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdir. Shu bois, bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi har bir davlatning iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan xavfsizligini ta'minlashda muhim strategik masalasi sifatida muhim o'rin tutadi. Oziq-ovqat masalalasi nafaqat mamlakat aholi sog'ligini

muhofaza qilish, balki bugungi kunda ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Birlashgan millatlar tashkiloti (UN) ma'lumotlariga ko'ra, "Dunyo aholisi o'sishda davom etar ekan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, global ta'minot zanjirini yaxshilash, oziq-ovqat isrofgarchiligini oldini olish va oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish, ochlik va to'yib ovqatlanmaslikdan azob ko'rayotganlarni to'yimli darajada oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lishini ta'minlash uchun zudlik bilan ko'proq kuch va innovatsiyalar zarur" deb ta'kidlab o'tildi [6].

"Countrymeters.info" internet nashrining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining soni 8 milliard 345 million kishiga yetdi. Demak, aholi sonining yildan-yilga o'sishi bevosita oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu jihatdan, jahon miqyosida aholi sonining o'sishi bilan birga oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojning ham o'sishi bevosita oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash talabini qo'yimoqda.

Birlashgan millatlar tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ning ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 2,33 milliard inson muntazam ravishda yetarli darajada oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan, 864 million kishi esa yuqori darajada oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelmoqda. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ning 2024-yil yakunlari bo'yicha hisobotida global oziq-ovqat xavfsizligi COVID-19 pandemiyasidan oldingi darajadan biroz yaxshilandi, biroq, oxirgi besh yilda bu ko'rsatkich ijobiy tomonga o'zgarmadi. 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasida oziq-ovqat xavfsizligi muammolariga yechim topish va bu borada dunyo hamjamiyatini ogohlikka chaqirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish bo'yicha dolzarb masalalarga yechim topish vazifalari belgilab berildi [7].



**1-rasm. Global miqyosda urbanizatsiya darajasining ortishi oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri (2023-yil yakunlari bo'yicha)**

1-rasmda keltirilgan manbalarga ko'ra, global miqyosda urbanizatsiya darajasining ortishi oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini ko'rish mumkin. Dunyo qishloq joylarida og'ir darajadagi oziq-ovqat xavfsizligi 11,3 foizni tashkil etsa, o'rtacha darajadagi oziq-ovqat xavfsizligi 20,7 foizni tashkil etgan. Shahar atrofida yashaydigan aholi bo'yicha ko'radigan bo'lsak, og'ir darajadagi oziq-ovqat xavfsizligi 12,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, o'rtacha darajadagi oziq-ovqat xavfsizligi 17,9 foizni tashkil etgan. Shuningdek, iqlimiy migratsiya ta'sirida aholining kuchishi tufayli shaharlarda og'ir darajadagi oziq-ovqat xavfsizligi 9,0 foizni tashkil etsa, o'rtacha darajadagi oziq-ovqat xavfsizligi 16,5 foizni tashkil etgan. Umuman olganda, urbanizatsiya ta'sirida oziq-ovqat xavfsizligi darajasi pasayganligini ko'rish mumkin.


Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda dunyo aholisining taxminan 8,2 foiz, ya'ni, 6,73 million kishi ochlikni boshidan o'tkazgan; 2030-yilga borib 512 million kishi doimiy oziqlanish yetishmasligi holatida bo'lishi bashorat qilinmoqda; oziqlanishni ta'minlay olishdagi muammolar katta bo'lib, xususan – 2024 yilda 2,6 milliard kishi “sog'lom ovqatni xarajati qo'li yetmaydigan” bo'lgan [8].

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi borasida izchil islohotlar davom etmoqda. Xususan, bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-36-sonli Farmonida “So'nggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksport hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi” ta'kidlab o'tilgan [1].

O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom oziqlanishni ta'minlashning 2030 yilgacha mo'ljallangan Strategiyasida “*Oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning strategik maqsadi* - mamlakat aholisini yetarli hajmda xavfsiz, sifatli va arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda hozirgi va istiqboldagi iste'mol ehtiyojlari va ratsion me'yorlari darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shuningdek, aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilishdan iborat” deb ta'riflangan.

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Gigiena va sanitariya qoidalariga amal qilmaslik;
2. Ishlab chiqarishda sifati past xom ashyodan foydalanish;
3. Qonunchilik va nazorat qilish darajasi pastligi;
4. Texnologik jarayonlarning to'g'ri tashkil etilmasligi;
5. Mahsulotlarni noto'g'ri saqlash va tashish;
6. Aholining oziq-ovqat haqida xabardorlik darajasi pastligi va boshqalar (2-rasm).



**2-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar va uning tavsifi**

Manba: muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

### **Xulosa va takliflar**

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan masalalarga yechim topish bugun davlat va jamiyat oldidagi asosiy vaziflardan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida, qonunchilik talablarini kuchaytirish, oziq-ovqat importi va eksporti balansini ta'minlash, oziq-ovqat yetishtiruvchilar va uni qayta ishlash korxonalari faoliyatini nazorat qilish hamda xalqaro standartlar talablari asosida doimiy ravishda sertifikatlash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Mamlakat fuqarolari ham bevosita oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, oziq-ovqat mahsulotlaridan oqilona

va samarali foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, me'yorida xarid qilish madaniyatini shakllantirish, oziq-ovqatlarni chiqindiga chiqarish hajmini kamaytirish borasida choralarni ko'rish va boshqalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-36-sonli Farmoni.
2. B.Berkinov. Problems of food security in Uzbekistan. International journal of Research in Management & Finance. [www.ijirmf.com](http://www.ijirmf.com)
3. Hasan Pirnazarovich Abulkosimov, Olimjon Yaxshiboyevich Khamraev, Faruddin Ilhomjonovich Eshmirzaev. FOOD SECURITY IN UZBEKISTAN. WEB OF SCIENTIST. ISSN: 2776-0979, Volume 5, Issue 6, June-2024. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/5001/4799/>
4. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/>
5. [https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/brief/food-security-update/what-is-food-security?utm\\_source=](https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/brief/food-security-update/what-is-food-security?utm_source=)
6. <https://sdgs.un.org/topics/food-security-and-nutrition-and-sustainable-agriculture>
7. <https://www.fao.org/interactive/state-of-food-security-nutrition/en/>
8. [https://knowledge4policy.ec.europa.eu/home\\_en](https://knowledge4policy.ec.europa.eu/home_en)

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

